

XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



2023 yil yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal ish haqi miqdori (dastlabki ma‘lumot)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2023 yil yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 471,7 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 118,1 foizi kuzatildi.

Tarmoqlar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi
(2023 yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

SANOAT SOHASIDA



4 181,7
ming so‘m **oktabr**

noyabr 4 095,4
ming so‘m

4 343,2
ming so‘m **dekabr**

Yanvar-dekabr

3 930,7
ming so‘m

QURILISH SOHASIDA



3 731,1
ming so‘m **oktabr**

noyabr 3 554,2
ming so‘m

4 354,8
ming so‘m **dekabr**

Yanvar-dekabr

4 273,3
ming so‘m

SAVDO SOHASIDA



Yanvar-dekabr

2 802,6
ming so'm


TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA



Yanvar-dekabr

5 600,7
ming so'm


AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA



Yanvar-dekabr

7 538,6
ming so'm

MOLIYAVIY VA SUG'URTA FAOLIYATI SOHASIDA



Yanvar-dekabr

10 622,4
ming so'm

TA'LIM SOHASIDA



3 053,9
ming so'm

oktabr

noyabr

3 063,2
ming so'm

3 319,9
ming so'm

dekabr

Yanvar-dekabr

2 917,8
ming so'm

SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOY XIZMATLAR SOHASIDA



2 981,0
ming so'm

oktabr

noyabr

2 974,7
ming so'm

3 208,7
ming so'm

dekabr

Yanvar-dekabr

2 995,3
ming so'm

SAN'AT, KO'NGIL OCHISH VA DAM OLISH SOHASIDA



2 866,1
ming so'm

oktabr

noyabr

2 862,0
ming so'm

2 759,3
ming so'm

dekabr

Yanvar-dekabr

3 038,7
ming so'm

BOSHQA FAOLIYAT TURLARI SOHASIDA



4 153,1
ming so'm

oktabr

noyabr

3 983,3
ming so'm

5 399,7
ming so'm

dekabr

Yanvar-dekabr

4 171,4
ming so'm



Sohalar kesimida o'rtacha oylik ish haqi miqdori va o'sish sur'ati
(2023 yil yanvar-dekabr)



■ Ish haqi miqdori ming so'm ▲ O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati Qurilish sohasida (176,5 %), Tashish va saqlash faoliyati (163,2 %) Axborot va aloqa faoliyati (160,5 %) va Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida (127,5 %) tashkil etib boshqa faoliyat turlariga nisbatan yuqori bo'lmoqda.



Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilot xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o'rtacha oylik ish haqi
(2023 yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subektlaridan tashqari)

	<i>Xodimlar soni, kishi:</i>	<i>Ish haqi fondi, mln.so'm:</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm:</i>
Jizzax viloyati bo'yicha – jami	109 559	449 5170,1	3 471,7
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	14 656	69 1296,1	3 930,7
Qurilish	1 261	6 4664,0	4 273,3
Savdo	549	1 8463,8	2 802,6
Tashish va saqlash	772	5 1884,8	5 600,7
Yashash va ovqatlanish	21	669,7	2 657,4
Axborot va aloqa	500	4 5231,8	7 538,6
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	1 919	24 4611,6	10 622,4
Ta'lim	52 404	183 4865,0	2 917,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	21 935	77 7907,0	2 955,3
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	913	3 3292,0	3 038,7
Boshqa faoliyat turlari	14 629	73 2284,3	4 171,4

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Moliya va sug'urta faoliyati 10 622,4 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 3,1 marta), Axborot va aloqa faoliyati 7 538,6 ming so'mni (2,2 marta) va Tashish va saqlash 5 600,7 ming so'mni (61,3 %) tashkil etib, boshqa faoliyat turlariga nisbatan yuqori bo'lmoqda.



Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlar o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar G'allaorol – 181,9 %, Zafarobod – 180,8 %, va Zarbdor – 100,6 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Do'stlik – 46,6 % va Zomin – 51,5 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Zafarobod – 154,3 %, Do'stlik–149,5 %, Jizzax shahri – 126,7 % va Zomin – 102,4 %, tumanlarida viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Baxmal tumani – 56,0 % va Paxtakor tumanida – 65,7 % kuzatildi



Savdo sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida – 110,6 % viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Savdo sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi, Baxmal – 53,6 % va Do'stlik – 88,9 % tumanlarida kuzatildi.



Ta'lim sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Jizzax shahrida – 137,0 % va Zarbdor – 109,1 % tumani hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Yangiobod – 77,8 %, Zafarobod – 79,0 % hamda G'allaorol – 79,5 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Paxtakor – 109,3 %, Jizzax shahri – 109,2 %, Zomin – 108,7 %, Zafarobod – 106,9 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Forish – 83,1%, Zarbdor – 84,8 %, Yangiobod – 88,2 % tumanlarida kuzatildi



Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida – 101,0 %, tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Do'stlik – 34,7 % va Yangiobod – 92,6 % tumanlarida kuzatildi.




Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2023 yil yanvar-dekabr, ming so'mda)

<i>O'rtacha oylik ish</i>	<i>2022 yil yanvar-dekabr</i>	<i>2023 yil yanvar- dekabr</i>	<i>O'sish sur'ati, %.</i>
Jizzax viloyatida	2 940,4	3 471,7	118,1
Jizzax shahri	3 744,6	4 445,3	118,7
tumanlar:			
Arnasoy	2 940,4	2 830,8	96,3
Baxmal	2 748,4	2 910,1	105,9
G'allaorol	2 331,7	3 197,5	137,1
Sharof Rashidov	2 387,6	2 743,0	114,9
Do'stlik	2 379,8	2 749,8	115,5
Zomin	2 614,4	2 915,8	111,5
Zarbdor	2 733,3	3 233,3	118,3
Zafarobod	3 065,8	3 826,7	124,8
Mirzacho'l	2 476,0	2 757,2	111,4
Paxtakor	2 701,6	3 007,7	111,3
Forish	2 287,8	2 640,2	115,4
Yangiobod	2 290,4	2 605,9	113,8

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida 4 445,3 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan (118,7 %), Zafarobod tumanida 3 826,7 ming so'mni (124,8 %), Zarbdor tumanida 3 233,3 ming so'mni (118,3 %), G'allaorol tumanida 3 197,5 ming so'm (137,1 %) va Paxtakor tumanida 3 007,7 ming so'm (111,3 %) ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqi miqdorining viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan o'sishi

(2023 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini hududlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 128,0% va Zafarobod tumanida 110,2% ni tashkil qilgan bo'lsa, Mirzacho'l tumanida 97,4% va Zarbdor tumanida 93,1% ni tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida mehnatga haq to'lash eng kam miqdori (2023 yil dekabr oyidan 1 050,0 ming so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**JIZZAX VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI
2023 YIL YANVAR-DEKABR**

*Nashrga mas'ul:
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi*

tel.: 0(372) 221-53-51

Buyurtma raqami № 28.10.2023 yil Tiraj 15 nusxa

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Jizzax shahri, To'qimachilar ko'chasi 7**

Rasmiy veb-sayt: www.jizzaxstat.uz
elektron pochta manzili: info@jizzaxstat.uz
elektron himoyalangan pochta manzili: jiz.stat@exat.uz